

SAID AHMADNING “UFQ” ROMANI HAQIDA

Termiz davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti

1-bosqich talabasi

Xurramova Mohinur O'skin qizi

Raxmatova Zilola Faxriddin qizi

xurramovamohinur95@gmail.com

lazizrahmatov2008@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik vakili Said Ahmadning “Ufq” roman-trilogiyasi badiiy va mazmun jihatdan tahlil qilinadi. Asarda tasvirlangan tarixiy voqealar, urush yillaridagi insoniy kechinmalar, muhabbat, sadoqat va xoinlik singari mavzularning badiiy talqini yoritilgan. Shu bilan birga, romanning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati, qahramonlarning hayotiy kurashi va ruhiy o‘zgarishlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Said Ahmad, “Ufq” romani, urush yillari, obrazlar tizimi, muhabbat, xoinlik, qahramonlik, ma’naviyat.

Аннотация. В данной статье рассматривается художественное и идейное содержание трилогии Саида Ахмада «Уфк». Анализируются темы, раскрытые в произведении, такие как человеческие переживания во время войны, трудовой героизм, любовь и предательство. Также освещается социально-нравственное значение романа, духовное развитие героев и философские взгляды автора.

Ключевые слова: Саид Ахмад, роман «Уфк», военные годы, система образов, любовь, предательство, героизм, духовность.

Annotation. This article analyzes the artistic and thematic aspects of Said Ahmad’s trilogy “Ufq” (*The Horizon*). It explores the depiction of human experiences during wartime, the heroism of labor, love, and betrayal. The paper also discusses the novel’s social and moral significance, the psychological development of the characters, and the author’s philosophical worldview.

Keywords: Said Ahmad, *Ufq* novel, wartime, character system, love, betrayal, heroism, spirituality.

Kirish. O‘zbek adabiyotining yuksak cho‘qqilaridan biri bo‘lgan Said Ahmad ijodi xalq hayotining murakkab kechinmalarini chuqur tahlil qilishi, inson ruhiyatini haqqoniy aks ettirishi bilan ajralib turadi. Uning “Ufq” nomli trilogiyasi yozuvchining ijodiy kamolot cho‘qqisiga chiqqan asarlaridan biridir. Asar 1967–1974-yillarda yozilgan bo‘lib, XX asr o‘zbek xalqining tarixiy, ijtimoiy va ma’naviy hayotini yoritadi.

“Ufq” romanida yozuvchi o‘z davrining eng dolzarb muammolarini — urushning og‘ir ta’siri, xalqning mehnat qahramonligi, insoniy fazilatlar va ma’naviy qadriyatlarning sinovdan o‘tishini badiiy ifodalagan. Shuningdek, roman o‘zbek epik nasrining shakllanishida muhim bosqich bo‘lgan trilogiya sifatida e’tirof etiladi.

Asosiy qism

1. “Ufq” trilogiyasining umumiy xususiyatlari

Asar uch qismdan iborat: “Qirq besh kun”, “Hijron kunlari” va “Ufq bo‘zag‘asida”. Har bir qismda muayyan tarixiy davr, o‘ziga xos qahramonlar va ularning hayotiy sinovlari orqali xalqning ruhiy olami, mehnat va muhabbatga sadoqati tasvirlangan.

I-qism: “Qirq besh kun”

Trilogiyaning birinchi qismida “Katta Farg‘ona kanali” qurilishida ishtirok etayotgan xalqning mashaqqatli mehnati, fidoyiligi va birdamligi aks ettiriladi. Azizxon, Lutfinisa, Akbarali, Orzixon aya, Eshpolvon kabi obrazlar milliy xarakterni fidoyiligi va birdamligini juda keng asosli va yorqin ifodalaydi.

Azizxon — yosh, ishonchli, vatanparvar obraz sifatida gavdalanadi. Uning Lutfinisaga bo‘lgan sof muhabbati, lekin fojiali yakuni romanning dramatik kuchini oshiradi. Shu fojia orqali yozuvchi insonning hayotdagi sabr-toqatini va mehnatga sadoqatini ifodalaydi.

Ushbu qismda Said Ahmad xalq mehnatini epik ko‘lamda tasvirlab, o‘zbek xalqining jipsligi va or-nomusini madh etadi. “Katta Farg‘ona kanali” epizodi mehnat qahramonligi ramzi sifatida butun trilogiya davomida yangraydi.

II-qism: “Hijron kunlari”

Ikkinchi qismda voqealar Ikkinchi jahon urushi yillariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda front ortidagi xalqning og‘ir hayoti, urushning insoniy fazilatlarni sinovdan o‘tkazishi esa asosiy mavzuga asta sekinlik bilan borib aylanadi. Nizomjon, Dildor, Asrora, Inoyat oqsoqol, A‘zamjon kabi obrazlar orqali xalqning ruhiy kechinmalari, sadoqat, vijdon, xiyonat va sabr kabi tushunchalar badiiy tahlil etiladi.

Tursunboy obrazida esa vatan xoini timsoli beriladi. Uning ochko‘zligi, onasiga nisbatan beparvoligi, so‘ngra o‘lim topishi insoniy qadriyatlardan yuz o‘girishning fojiali oqibatini ifodalaydi.

Said Ahmad bu qismda urushning inson qalbiga solgan og‘ir izlarini, ijtimoiy adolatsizliklar va ma‘naviy sinovlarni chuqur tahlil qiladi. Shu bilan birga, xalq orasida saqlanib qolgan ezgulik, mehr va sadoqat tuyg‘ulari asarning ma‘naviy asosini tashkil etadi.

III-qism: “Ufq bo‘sag‘asida”

Yakuniy qismda yozuvchi qahramonlar taqdirini mantiqan yakunlaydi. Urushning oqibatlari, inson ruhiyatidagi izlar chuqur tahlil etiladi. Tursunboyning xoinlik tamg‘asi bilan xalq oldida sharmanda bo‘lishi, Jannat xolaning o‘g‘il dardida halok bo‘lishi, Nizomjon va Dildorning sinovlar orqali baxt topishlari asarning fojiali, ammo umidbaxsh yakunini yaratadi. Ikromjonning sahroda jon berishi esa insoniy fidoyilikning ramzi sifatida o‘quvchi qalbiga chuqur ta‘sir ko‘rsatadi.

“Ufq” romanining falsafiy va ijtimoiy qatlamlari

Roman o‘zbek xalqining ruhiy olami, tarixiy xotirasi va milliy qadriyatlarini mujassam etadi. Unda quyidagi asosiy g‘oyalar ilgari surilgan:

- Insoniylik va vijdon — har qanday davrda hal qiluvchi kuch sifatida;
- Mehnat va sadoqat — xalqni birlashtiruvchi asosiy qadriyat sifatida;
- Urush va fojia — inson ruhiyatining sinov maydoni sifatida;
- Muhabbat va sadoqat — hayot mazmunini belgilovchi ma‘naviy kuch sifatida.

Said Ahmad roman orqali inson hayotining murakkabliklarini, jamiyatdagi o‘zgarishlarni va ma‘naviy tiklanish jarayonlarini badiiy tahlil qiladi.

Xulosa

Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi o‘zbek adabiyotida epik nasrning yuksak namunasi hisoblanadi. Asarda xalqning urush yillaridagi mehnat qahramonligi, sadoqat, muhabbat, xiyonat va insoniylik singari mavzular hayotiy voqealar asosida badiiy yoritilgan.

Yozuvchi bu roman orqali o‘zbek xalqining o‘tmishdagi sabr-toqatini, ma’naviy qudratini va insoniy fazilatlarini abadiylashtiradi. Asar nafaqat adabiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega — u bugungi o‘quvchini ham mehnatsevarlik, fidoyilik va insonparvarlikka chorlaydi.

“Ufq” romanida bayon etilgan voqealar zamirida tinchlik, urush, mardlik, sadoqat, farzandlar tarbiyasi mavzulari mujassam. Bu kitob bugun ham kitobxonlar orasida qo‘lma-qo‘l. Kitobxon mutolaa davomida nafaqat jonli tasvirlar orqali tarixiy ma’lumotlar bilan tanishadi, balki hayot mashaqqatlaridan saboq chiqarishga, insoniylik va muhabbat aynan qiyinchiliklar ta’sirida toblanishiga amin bo‘ladi. Ustoz adib Abdulla Qahhor yozuvchining ushbu asardagi mahoratini shunday ta’riflaydi: “Bu kitobni (‘Ufq’ romanini) kitobxon boshdan-oyoq shavq bilan, hech qayerda turtinmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi bo‘g‘ilmasdan o‘qib chiqadi... Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg‘usi, quvonchi, qilishqilmishi, muhabbati, g‘azabi, og‘zidan chiqadigan har bir so‘zi rost...” Darhaqiqat, ushbu asar “... odamga quvvat beradigan umid, uning boshini “toshdan” qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir”. Ushbu roman uchun bundan-da yuksak baho bo‘lmasa kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Normatov U. *Said Ahmad (Adabiy portret)*. – Toshkent, 1971.
2. Mirvaliyev S. *O‘zbek adiblari*. – Toshkent: “Yozuvchi”, 2000.
3. Said Ahmad. *Ufq*. – Toshkent, 1969.
4. Qosimov Sh. *O‘zbek romanchiligi taraqqiyoti*. – Toshkent: Fan, 1985.
5. Suyunov N. *O‘zbek adabiyoti nazariyasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
6. To‘xtaboyev O. *20-asr o‘zbek adabiyotida epik asarlar*. – Toshkent: Universitet, 2004.
7. G‘afurov I. *Prozaning shoiri*. – Toshkent, 1984.
8. Karimov N. va boshq. *20-asr o‘zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.